

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida bank hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz
hisobvarafiga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa
shartnomalarni tuzish bo‘yicha Tavsiyalarga
— Ilova

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “QR-Online” avtomatlashtirilgan tizimi orqali
to‘lovlarni amalga oshirish, ro‘yxatga olish va qabul qilish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Ushbu Ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – Oferta) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, yuridik shaxslarga va Yakka tartibdagi tadbirkorlarga “QR-Online” avtomatlashtirilgan tizimi orqali to‘lovlarni amalga oshirish, ro‘yxatga olish va qabul qilish xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan shartnoma tuzish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag‘i ochish yuzasidan murojaat qilingan arizani taqdim etish bilan yoxud ushbu shartnomaga ilova qilingan arizani, belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtdan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

“QR-Online” tizimi - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining avtomatlashtirilgan “QR-Online” tizimi bo‘lib, tadbirkorlik subyektlariga (tijorat banklari mijozlariga) QR-kodlarini markazlashtirilgan va yagona tarzda berish hamda, uning yordamida ular tomonidan sotilgan tovarlar va/yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni onlayn tartibda qabul qilishga mo‘ljallangan. (real vaqtda).

QR-kod (*ingliz tilida Quick Response Code -tezkor javob kodi*) - bu tegishli dasturiy ta‘minot va apparat tomonidan o‘qiladigan mijozning identifikatsiya ma‘lumotlarini o‘z ichiga olgan “QR-Online” tizimi tomonidan yaratilgan matritsa (ikki o‘lchovli) shtrix-kod ko‘rinishidagi grafik tasvir. Mijoz unga tegishli QR-kodni qog‘ozga yoki elektron shaklda (vab-saytda va hokazolarda) joylashtirishi mumkin.

Bank kartasi yoki bank hisobvarag‘i egasi (foydalanuvchi) - bu sotib olingan tovarlar, olingan xizmatlar/ishlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish uchun bank kartasi yoki bank hisobvarag‘idan foydalanadigan jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor.

Mijoz (buyurtmachi) - yuridik shaxs tashkil etgan va/yoki tashkil etmagan holda chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi, bankda milliy valyutada birlamchi yoki ikkilamchi hisobvarag‘iga ega bo‘lgan hamda “QR-Online” tizimining ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchisi bo‘lgan bankning korporativ mijosi.

Bank kartasi - uni saqlovchisiga to‘lov infratuzilmari orqali to‘lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag‘larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to‘lov vositasidir.

Hisob-kitob hisobvarag‘i - 23520-sonli tranzit hisobvarag‘i – Mijoz nomiga ochilgan “QR kodli to‘lov tizimi orqali olingan daromad”.

MUNIS - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo “universal netting” axborot tizimi bo‘lib, hisob-kitoblar kliringi asosida O‘zbekiston tijorat banklari o‘rtasida o‘zaro hisoblarni amalga oshiradi.

BTT - O‘zbekiston Respublikasi bank telekommunikatsiya tarmog‘i;

Ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturiy mahsuloti/to‘lov instrumentlari:

- intellektual mulk mahsulotlari (mobil ilovalar) foydalanuvchilar, Bank va mijoz o‘rtasida o‘zaro axborot va texnologik hamkorlikni amalga oshirish uchun, xususan, to‘lovlar bo‘yicha ma‘lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish uchun mo‘ljallangan;

- tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun foydalanuvchining bank kartasidan bank hisobvarag‘idan foydalangan holda amalga oshiriladi, shu jumladan Mijozga foydalanuvchilarning hisobvarag‘laridan mijoz hisobiga pul mablag‘larini o‘tkazish to‘g‘risida ma‘lumotlar olish imkonini beradi;

- **Ishtirokchilar**- Bank, “QR-Online” tizimida ro‘yxatdan o‘tgan Mijoz hamda foydalanuvchilar;

- **Taqqoslangan fayl** – “QR-Online” tizimi va MUNIS tomonidan shakllangan, foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan fayl;

- **Hisobot oyi**- xizmatlar ko‘rsatilgan oyning birinchi kunidan boshlab, oxirgi kuniga qadar bo‘lgan davr;

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ushbu shartnoma mijozning Bank tomonidan “QR-Online” tizimida ro‘yxatdan o‘tish/ulanishning umumiy shartlarini va mijozga QR kodini berishni, shuningdek QR-Online tizimi orqali mijoz foydasiga to‘lovlarni qabul qilishning umumiy shartlarini belgilaydi.

2.2. Mijoz ariza taqdim etishi bilan, mazkur shartnomaning barcha shartlariga rozi ekanligini va ularni qabul qilishini bildiradi. Mijozni ariza va zarur bo‘lgan hujjatlarni taqdim etish uni ushbu shartnomaga qo‘shilishini anglatadi.

2.3. Agar Mijozni Bankda hisobvarag‘lari mavjud bo‘lmasa, u “QR-Online” tizimiga ulanish uchun beriladigan arizadan tashqari, Bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- mijoz nomidan pul hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega bo‘lgan shaxs vakolatini va shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjat).

2.4. Bank, ushbu shartnomaga ko‘ra:

- bank kartalari yoki foydalanuvchilarning bank hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish maqsadida mijozni “QR-Online” tizimiga ulaydi, unga belgilangan tartibda QR kodini beradi.

- mijozning tovarlar, xizmatlari, ishlari uchun foydalanuvchilar tomonidan bank kartasi yoki bank hisobvarag‘lari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish;

- foydalanuvchilardan kelib tushgan mablag‘larni komissiya to‘lovlarini ushlab qolgan holda, Mijozning hisobvarag‘iga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta‘minlash.

2.5. Bank kartalari va bank hisobvaraqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar operatsiyalari valyutasi - O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – “so‘m” hisoblanadi.

2.6. Bank “QR kod”ga ega bo‘lgan Mijozlargagina bank kartalari yoki bank hisobvarag‘laridan foydalangan holda to‘lovni amalga oshirishga ruxsat beradi. Mijoz, o‘ziga tegishli bo‘lmagan QR koddan foydalanishga haqli emas.

2.7. Amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar elektron ravishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning MUNIS bilan ishlash bo‘yicha texnologik yo‘riqnomasiga muvofiq (real vaqt rejimida) o‘tkaziladi.

2.8. Muvaffaqiyatli to‘lovni bekor qilishni texnik jihatdan imkoniyati yo‘qligi sababli, Bank muvaffaqiyatli to‘lovni bekor qilmaydi. Amalga oshirilgan to‘lovlarni qaytarish mijozning o‘zi tomonidan foydalanuvchining bank kartasi hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. QR-Online tizimining ishlashi bo‘yicha maslahatlar so‘rab murojaat qilish. Murojaat qilish uchun quyidagi aloqa kanallari mavjud bo‘ladi:

(1) aloqa markazining telefon raqami: +998(71) 1204500;

(2) elektron pochta manzili: www.sqb.uz;

(3) Bank tarmoqlarining telefon raqamlari;

3.1.2. Ushbu shartnoma bilan bog‘liq ma‘lumotlarni olish;

3.1.3. Bankdan hisobot oyida amalga oshirilgan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan belgilangan tartibda ko‘chirmalar taqdim etishni talab qilish;

3.1.4. Tizimda muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, qabul qilish dalolatnomasi asosida Bank tomonidan yaratilgan va chop etilgan QR kodini olish. QR kodining elektron nusxasi elektron vositalar orqali berilishi mumkin.

3.1.5. Mijoz chop etilgan QR kodini kerakli miqdorda ko‘paytirish, shuningdek chakana savdo do‘konlariga o‘rnatish uchun yangi QR kod so‘rash huquqiga ega;

3.1.6. Zarur hollarda Bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi arizani taqdim etish orqali xizmatdan foydalanishni to‘xtatish.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. “QR – Online” tizimida ishlash bo‘yicha Mijozga tavsiyalar berish;

3.2.2. Ushbu shartnoma bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish, shu jumladan Bank kartalari yoki foydalanuvchilarning bank hisobvaraqlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishni ta‘minlash;

3.2.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga muvofiq mijoz tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni tekshirish (rr:2886 ning 23.05.2017),

shuningdek bahsli operatsiyalar va bank kartalari yoki bank hisobvarag'laridan foydalanuvchilar tomonidan noto'g'ri foydalanish holatlarini tekshirish.

3.2.4. Mijoz uchun qo'shimcha iste'molchilar doirasini jalb qilish maqsadida potensial foydalanuvchilar o'rtasida reklama xarakteridagi ma'lumotlarni tarqatish;

3.2.5. Mijozni identifikatsiya qilish maqsadida zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishni talab qilish hamda Mijozdan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisobvarag' bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish;

3.2.6. Mijozga oldindan xabardor qilgan holda xizmat ko'rsatishni to'xtatish:

- mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlariga rioya qilmasa;

- nizolar paytida;

- "QR-Online" tizimiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan avariya va profilaktika ishlarini bajarish muddatiga;

3.2.7. Quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish:

- Mijoz tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq "shubhali" toifaga kiradigan operatsiyalar aniqlangan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, bankning ichki me'yoriy hujjatlari va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda;

3.2.8. Mazkur shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga asosan, Bank tomonidan memorial order yoki to'lov talabnomasi orqali Mijozning rozilgisiz (akseptsiz) tartibda undirib olinadi.

3.3. Mijozning majburiyatlari:

3.3.1. "QR-Online" tizimiga ulanish uchun bankka ushbu shartnomaga ilova qilingan ariza va hujjatlarni taqdim etish (*Mijozni Bankda hisobvarag'i mavjud bo'lmagan hollarda*);

3.3.2. Ushbu shartnoma shartlariga va Bank tariflariga muvofiq bankka ko'rsatgan xizmatlari uchun haq to'lash;

3.3.3. O'zini yuridik yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, bankni bunday o'zgarishlar haqida 3 (uch) kalendar kundan kechiktirmay xabardor qilish;

3.3.4. QR kodidan foydalangan holda operatsiyalar vaqtida foydalanuvchilar bilan yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal qilish.

3.3.5. QR-Online tizimi yordamida quyidagi tovar/xizmatlarni amalga oshirmaslik:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlangan;

- muomaladan chiqarilgan;

- va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan savdosi cheklangan boshqa tovarlar;

3.3.6. Barcha foydalanuvchilarga QR-onlayn xizmatidan foydalangan holda o'z savdo shoxobchalari orqali sotiladigan har qanday tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etish;

3.3.7. QR-Online xizmatidan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilishda sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxini oshirib yubormaslik.

3.3.8. Chop etilgan QR-kodga xech qanday o'zgartirish (eskiz, elim chizmalari va boshqalar) kiritmaslik, bu noto'g'ri indentifikatsiyaga (o'qishga) olib kelishi mumkin;

3.4. Bank majburiyatlari:

3.4.1. Qabul qilingan to'lovlardan bank komissiyasini chegirgan holda, mablag'larni qolgan summasini real vaqt rejimida, lekin qabul qilingan to'lov summasi kelib tushgan kunning keyingi bank ish kunidan kechiktirmay Mijozning hisobvarag'iga o'tkazishni ta'minlash;

3.4.2. Ushbu shartnomani amal qilish davrida xizmatlarni lozim darajada sifatli va to'liq hajmda taqdim etish. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati ushbu shartnomada ko'rsatilgan talablarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu xizmat turiga belgilangan boshqa talablarga javob berishi kerak;

3.4.3. Mijozga ro'yxatdan o'tgan QR-kod ma'lumotlarini, murojaat qilingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etish. Bunda murojaat Bank tomonidan tasdiqlangan ariza shaklida bo'lishi lozim;

3.4.4. O'z uskunalarda profilaktika ishlarini olib borishda ularni eng kam yuklanadigan soatlarda va ish boshlanishidan 24 soat oldin va favqulodda vaziyatlarda 1 soat ichida oldindan xabar berish bilan

bajarish. Bunda Bank o'z rasmiy veb-sayti va boshqa aloqa kanallari orqali Mijozni profilaktik xizmat haqida xabardor qiladi.

3.4.5. Mijozning iltimosiga binoan hisobot oyi uchun hisob-kitob hisobvarag'idagi pul oqimidan ko'chirmani taqdim etish.

3.4.6. Mijozning QR-kodi orqali Bank tomonidan qabul qilingan to'lovlar bilan bog'liq savollarni hal etishga ko'maklashish;

4. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

4.1. Mijoz Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bank tariflarida belgilangan to'lovlarni to'lash majburiyatini oladi.

4.2. Bank tomonidan mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq mijozning hisobvarag'idan uning roziligisiz va topshirig'isiz (akseptsiz ravishda) hisobdan chiqariladi.

4.3. Tariflarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, Bank bu haqida mijozni ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmasdan, ushbu o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilgan kundan 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay quyidagi usullardan biri bilan xabardor qiladi:

a) mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi bankning alohida bo'linmalarida axborot stendlarida e'lon qilish orqali;

b) bankning veb-sahifasida e'lon qilish orqali: www.sqb.uz;

v) boshqa yo'llar bilan (bankning xohishiga ko'ra).

4.4. Agar mijoz tariflarga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalarga rozi bo'lmasa, mijoz bunday o'zgartirish yoki qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar shartnomani ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda bekor qilishga haqlidir.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlardan biri tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, ko'rsatilgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplaydi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida, boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

5.2. Mijoz sotilgan tovarlar/ishlar/xizmatlarning muddati, sifati, miqdori va hajmi bo'yicha foydalanuvchilarga (bank kartalari yoki bank hisobvaraqlari egalariga) tovarlarni/ishlarni/xizmatlarni sotish bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgardir.

5.3. Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi hamda bankka taqdim etilgan hujjatlar/ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgardir.

5.4. Bank Mijoz tomonidan tovarlar/ishlar/xizmatlarni sotish bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarilmaganligi uchun Foydalanuvchilar oldida javobgar emas.

5.5. Texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/shikastlanishi, protsessing markazining dasturiy ta'minotidagi nosozliklar va to'lov tizimidagi texnik nosozliklar) sababli shartnoma shartlarini bajarilmasligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.6. Bank tomonidan elektron to'lovlarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarni buzganlik uchun, Bank mijozga kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.7. Bankning aybi bilan elektron to'lov yanglish amalga oshirilgan hollarda, bank yanglish amalga oshirilganligi aniqlangan ish kunining ertasidan kechiktirmay mablag'larni qabul qiluvchining hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

5.8. Tomonlardan birining boshqa Tomonga neustoykani to'lashi Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5.9. Mazkur shartnomani bajarishda tomonlarning har biri O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart va buning uchun javobgar hisoblanadi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Shartnoma amalda bo'lgan davrda, bir tomon ikkinchi tomon oldida ularning ixtiyori va xohishidan tashqari, oldindan ko'rib bo'lmaydigan va oldini olib bo'lmaydigan, jumladan suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar natijasida kelib chiqqan

vaziyatlarda mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7. MAXFIYLIK

7.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini sir saqlanishini kafolatlaydi.

7.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozning yozma talabiga binoan mijozning o'ziga yoki uning vakolatli vakiliga berilishi mumkin.

7.3. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlari uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha yuzaga keladigan barcha nizo va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Agar kelib chiqqan nizo va kelishmovchiliklarni muzokora yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi.

8.3. Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan operatsiyalarni o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarga tayanadi.

8.4. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilib olganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to'g'risida pochta kvitansiyasi mavjud bo'lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SHARTLARI

9.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

9.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmashliklarini kafolatlaydi.

9.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari (tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz; Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot) orqali amalga oshiriladi.

9.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

9.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asosanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

10. Sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish bo'yicha shartlar

10.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

10.2. Mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni kiritish yoki mijoz topshirig'iga asosan hisobvarag'idan o'tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to'g'risidagi

xalqaro qonun hujjatlariga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko‘rish (tekshirish va o‘rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliyotni zarur bo‘lgan davrga to‘xtatib qo‘yishga haqli.

10.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo‘yicha har qanday ma‘lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, uning to‘liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro‘yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, yuk to‘g‘risida, jo‘natish hujjatlari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va boshqa zarur ma‘lumotlar*) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

10.4. Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘larni mijoz hisobvarag‘iga kirim qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

10.5 Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejalashtirilgan amaliyotlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga oshirayotgan mijozdan xalqaro e‘tirof etilgan va reytingga ega bo‘lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliyotni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliyotni o‘tkazishda mustaqil hisoblanadi.

Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

10.6 Mijoz faoliyati sanksiya bo‘yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo‘lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

10.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarni buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo‘lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

10.8. Mijoz o‘z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

10.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘lar bo‘yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini jo‘natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro‘yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

11. SHARTNOMA MUDDATI, UNI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu shartnoma ariza berilgan kundan boshlab kuchga kiradi va har ikki tomonning tashabbusi bilan tugatilgunga qadar amal qiladi.

11.2. Mijoz bankka tegishli yozma ariza yuborish va komissiyalarni to‘lash orqali ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

11.3. Bank ushbu shartnomani bekor qilish niyati haqida kamida 30 kalendar kun oldin Mijozga yozma xabarnoma yuborish orqali bir tomonlama bekor qilishga haqli.

11.4. Bank Mijozga shartnomaga kiritilgan o‘zgartish va / yoki qo‘shimchalar to‘g‘risida, o‘zgartish va qo‘shimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin ma‘lumotni quyidagi usullardan biri bilan oldindan oshkor qilish orqali xabardor qiladi:

a) bunday ma‘lumotlarni Bank www.sqb.uz veb-saytiga joylashtirish;

b) mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi bankning alohida bo‘linmalarida axborot stendlariga e‘lonlarni joylashtirish;

v) axborot xabarlarini elektron pochta orqali yuborish;

g) mijozga ma‘lumot olish va uning bankdan kelishini aniqlash imkonini beradigan boshqa usullar.

12. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

12.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va tomonlar o'rtasida tuzilgan bank hisobvarag'i shartnomasi bilan tartibga solinadi.

ДОГОВОР ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ
по предоставлению услуг регистрации и приёма
платежей через Автоматизированную систему «QR-Online» Центрального
банка Республики Узбекистан

Настоящий договор публичной оферты (далее-оферта) является официальной публичной офертой, направленной в соответствии со статьями 367 и 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан для заключения договора по предоставлению услуг регистрации и приёма платежей через Автоматизированную систему «QR-Online» Центрального банка Республики Узбекистан на оказание дистанционных услуг по обслуживанию банковских счетов юридическим лицам и индивидуальным предпринимателям.

Договор публичной оферты считается заключённым (акцептированным) с момента обращения Клиента заявлением об открытии банковского счета или полного заполнения в установленном порядке приложенного к настоящему договору заявления, и означающих безоговорочное принятие Клиентом всех условий настоящего договора публичной оферты и оплату платежей без каких-либо ограничений в соответствии с Тарифами Банка.

1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

Система «QR-Online» - Автоматизированная система «QR-Online» Центрального банка Республики Узбекистан, предназначенная для централизованной и унифицированной выдачи субъектам предпринимательства (клиентам коммерческих банков) QR-кодов, с помощью которых могут быть приняты оплат за реализуемые ими товары и/или оказанные ими услуги в режиме on-line (в реальном времени).

QR-код (англ. Quick Response Code — код быстрого реагирования) - графическое изображение в виде матричного (двухмерного) штрих кода, сгенерированный Системой «QR-Online», содержащий идентификационные данные Клиента, которые считываются соответствующими программно-аппаратными средствами. Клиент может размещать принадлежащий ему QR-код на бумажном носителе или в электронной форме (на веб-сайте и др.).

Держатель банковской карты или банковского счета (Пользователь) - физическое лицо, индивидуальный предприниматель, использующие банковскую карту или банковский счет для оплаты за приобретаемые товары, получаемые услуги/работы.

Клиент (Заказчик)- корпоративный клиент Банка, осуществляющий розничную торговлю с образованием и/или без образования юридического лица, имеющий основной или вторичный счет в национальной валюте в Банке, и являющееся зарегистрированным пользователем системы «QR-Online».

банковская карта - платёжное средство, предоставляющее его держателю возможность осуществления платежей посредством платёжных инфраструктур или получения наличных денежных средств либо осуществления обмена валюты и выполнения других операций, установленных эмитентом банковской карты;

Счет взаиморасчётов - Транзитный счет № 23520 - «Поступившая выручка через платёжную систему QR-код». открытый на имя Клиента.

МУНИС - Межбанковская универсальная неттингово-информационная система Центрального банка Республики Узбекистан, которая на основе клиринга расчётов осуществляет взаимозачет между коммерческими банками Узбекистана.

БТС - банковская телекоммуникационная сеть Республики Узбекистан;

Специализированный компьютерный программный продукт/Платёжные инструменты:

- продукты интеллектуальной собственности (мобильные приложения), предназначенные для осуществления информационного и технологического взаимодействия между Пользователями, Банком и Клиентом, в частности, для организации приёма и обработки информации по платежам.

- осуществляемым с использованием банковской карты/банковского счета Пользователя за товары/работы/услуги, в том числе позволяющий Клиенту получать информацию о переводе денежных средств со счетов Пользователей на счет Заказчика.

- Участники - Банк, Клиент, зарегистрированный в Системе «QR-Online», а также Пользователи.

- Сверенный файл - файл, формируемый Системой «QR-Online» и МУНИС, содержащий информацию о платежах, осуществлённых Пользователями.

- Отчетный месяц - 1 (один) календарный месяц с первого дня месяца до последнего дня месяца, в котором были оказаны услуги, но приёму платежей.

2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

2.1. Настоящий Договор определяет общие условия регистрации/подключения Банком Клиента в Системе «QR-Online» и выдачи QR- кода Клиенту, а также приёма платежей в пользу Клиента через Систему «QR- Online».

2.2. Клиент с момента подачи заявления принимает и соглашается со всеми условиями настоящего договора. Подача заявления и предоставление необходимых документов означает присоединение Клиента к настоящему Договору.

2.3. Если Клиент не имеет счетов в Банке, он должен кроме подачи заявления на подключение к Системе «QR-Online», предоставить в Банк следующие документы:

- документ, удостоверяющий личность лица (паспорт или заменяющий его документ), имеющего полномочия подписания денежно-расчётных документов от имени Клиента.

2.4. По настоящему Договору Банк:

- в целях организации приёма и обработки информации по платежам, осуществляемым с банковских карт или с банковских счетов Пользователей, подключает Клиента к Системе «QR-Online», выдает ему QR-код в установленном порядке.

- обеспечивает предоставление информации по платежам с использованием банковской карты или банковских счетов, осуществляемым Пользователями за товар/услуги/ /работы Клиента;

- обеспечивает своевременное и в полном объеме поступление на счет Клиента денежных средств, поступающих от Пользователей с удержанием комиссии.

2.5. Валютой проведения операций с использованием банковских карт и банковских счетов осуществления расчётов по этим операциям является национальная валюта Республики Узбекистан - сум.

2.6. Банк разрешает проводить операции с использованием банковских карт или банковских счетов с целью оплаты Пользователями услуг Клиенту только при условии наличия у Клиента своего QR-кода. То есть Клиент не вправе использовать не принадлежащий ему QR-код.

2.7. Передача информации о проводимых платежах производится в электронной форме (в режиме реального времени) в соответствии с Технологической инструкцией ЦБРУз по работе с МУНИС (Межбанковская Универсальная Неттинговая Информационная система).

2.8. Из-за технического отсутствия возможности отмены успешно проведённого платежа, Банк не производит отмену успешно произведенного платежа. Возврат произведенных платежей осуществляется самим Клиентом на счет банковской карты или на банковский счет Пользователя.

3. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

3.1. Клиент вправе:

3.1.1. Обращаться за консультационной помощью по вопросам работы Системы QR-Online. Для обращения будут доступны следующие каналы связи:

(1) телефон Контакт-центра: +998(71) 1204500;

(2) электронная почта: www.sqb.uz;

(3) телефоны банковских сетей /ОПЕРУ и Центров банковских услуг;

3.1.2. Запрашивать информацию, связанную с настоящим Договором;

3.1.3. Требовать от Банка надлежаще оформленные выписки Счета взаиморасчётов за отчетный месяц.

3.1.4. После успешной регистрации в Системе, получить сгенерированный и напечатанный Банком QR-код на основании Акта приёма-передачи, электронная версия QR-код может быть передана на электронном носителе.

3.1.5. Клиент вправе умножать напечатанный QR-код в необходимом количестве, а также, запрашивать новый QR-код для установления в торговых точках;

3.1.6. При необходимости приостановить пользование услугой путём предоставления Банку Заявления по установленной Банком форме.

3.2. Банк вправе:

3.2.1. Давать рекомендации Клиенту по вопросам работы в Системе «QR- Online»;

3.2.2. Привлекать третьих лиц для оказания услуг по настоящему Договору, в том числе для обеспечения проведения операций с использованием банковских карт или банковских счетов Пользователей;

3.2.3. Проводить проверку предоставленных Клиентом данных в соответствии с Правилами внутреннего контроля по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения (рег. №2886 от 23.05.2017 года), а также проводить проверку по факту спорных операций и неправомерного использования банковских карт или банковских счетов Пользователей.

3.2.4. Распространять информацию, носящую рекламный характер, среди потенциальных Пользователей с целью привлечения для Клиента дополнительного круга потребителей;

3.2.5. Требовать от Клиента предоставления дополнительных документов, необходимых для его идентификации, запрашивать у Клиента дополнительную информацию по операциям, совершаемым по счету, в соответствии с требованиями законодательства о противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения;

3.2.6. Приостановить оказание услуг Клиенту с предварительным его уведомлением:

- при несоблюдении Клиентом условий настоящего Договора;
- на время спорных ситуаций;
- для выполнения неотложных аварийных и регламентных работ, связанных с обслуживанием Системы «QR-Online»;

3.2.7. Отказать в предоставлении услуги:

- в случае выявления осуществления Клиентом операций, попадающих под категорию «сомнительные» согласно законодательству по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, и финансированию терроризма;
- в иных случаях, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан, внутренними нормативными документами Банка и настоящим Договором;

3.2.8. Комиссия за обслуживание по настоящему Договору взимается Банком соответствии со статьями 780 и 783 Гражданского кодекса посредством мемориального ордера или платёжного требования без его согласия в беспспорном (без акцептное) порядке.

3.3. Клиент обязуется:

3.3.1. Для подключения к Системе «QR-Online» предоставить Банку заявление и документы, прилагаемых к настоящему Договору (если Клиент не имеет счетов в Банке);

3.3.2. Оплачивать Банку вознаграждение за оказываемые им услуги в соответствии с условиями настоящего Договора и Тарифами Банка;

3.3.3. В случае изменения своих юридических или банковских реквизитов, уведомить об этом Банк не позднее 3 (трех) календарных дней, после таких изменений;

3.3.4. Самостоятельно урегулировать с Пользователями конфликтные ситуации, возникшие при проведении операций с помощью QR-кода.

3.3.5. Не реализовать услуги с использованием Системы QR-Online:

- запрещенные действующим законодательством Республики Узбекистан;
- изъятые с оборота;
- и другие товары, на торговлю которых установлено ограничение согласно действующему законодательству Республики Узбекистан;

3.3.6. Предоставить всем Пользователям равные возможности в приобретении любых товаров (работ, услуг), реализуемых через свои торговые точки с использованием услуги QR-Online.

3.3.7. Не завышать цену на реализуемые товары (работ, услуг) при приёме платежей с использованием услуги QR-Online.

3.3.8. Не производить какие-либо изменения {зарисовки, кленить рисунки и т.д.) в напечатанный QR-код, что может привести к некорректной идентификации (считыванию) QR-кода.

3.4. Банк обязуется:

3.4.1. Обеспечить зачисление на расчётный счет Клиента всей денежной суммы за вычетом банковский комиссии по каждому принятому платежу в режиме реального времени, но не позднее следующего банковского рабочего дня со дня поступления суммы по каждому принятому платеж;

3.4.2. Оказывать услуги надлежащего качества и в полном объеме в течение всего срока действия настоящего Договора. Качество оказываемых услуг должно соответствовать требованиям, указанным в настоящем Договоре, а также иным требованиям, установленным для данного вида услуг на территории Республики Узбекистан;

3.4.3. Предоставить Клиенту данные зарегистрированного QR-кода не позднее 2 (двух) рабочих дней с момента обращения Клиента с заявлением по установленной Банком форме.

3.4.4. При проведении профилактических работ на своем оборудовании производить их в часы наименьшей нагрузки и с предварительным уведомлением за 24 часа до начала проведения работ, и в течение 1 часа в случае аварийных ситуаций. О профилактических работах Банк уведомляет Клиента посредством сообщения на своем официальном сайте и по другим каналам связи.

3.4.5. По запросу Клиента предоставлять надлежаще оформленные выписки о движении денежных средств на Счете взаиморасчетов за отчетный месяц.

3.4.6. Содействовать в урегулировании Клиентом вопросов, относящихся к принятым Банком посредством QR-кода платежам.

4. СТОИМОСТЬ УСЛУГ И ПОРЯДОК РАСЧЕТОВ

4.1. Клиент обязуется выплачивать Банку вознаграждение за оказанные услуги в соответствии с Тарифами Банка.

4.2. Платежи за оказываемые Банком услуги Клиенту осуществляются согласно ст. 783 Гражданского кодекса путём снятия без его распоряжения и согласия (в безакцептном порядке) соответствующих сумм со счетов Клиента.

4.3. В случае внесения изменений и/или дополнений в Тарифы, Банк уведомляет об этом Клиента не позднее, чем за 10 (десять) календарных дней до даты введения таких изменений и/или дополнений, без заключения дополнительного соглашения к настоящему Договору, любым из следующих способов:

а) путём размещения на информационных стендах в отдельных подразделениях Банка, обслуживающего Клиентов;

б) путём размещения на сайте банка: www.sqb.uz;

в) иными способами (по усмотрению банка).

4.4. В случае несогласия Клиента с изменениями или дополнениями, внесенными в Тарифы, Клиент вправе до вступления в силу таких изменений или дополнений расторгнуть Договор в порядке, предусмотренном настоящим Договором.

5. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

5.1. В случае невыполнения или ненадлежащего исполнения договорных обязательств одной из сторон, указанная сторона возмещает убытки, причинённые другой стороне, а также несет ответственность в порядке, предусмотренном Гражданским кодексом Республики Узбекистан, иными законодательными актами и настоящим Договором.

5.2. Клиент несет ответственность за ненадлежащее выполнение своих обязанностей по реализации товаров/работ/услуг перед Пользователями (Держателями банковских карт или банковских счетов) по срокам, качеству, количеству и объемам реализуемых товаров/работ/услуг.

5.3. Клиент несет ответственность за законность проведения операций по банковскому счету, правильность и достоверность представленных в Банк документов и сведений.

5.4. Банк не несет ответственность перед Пользователями за ненадлежащее выполнение Клиентом своих обязанностей по реализации товаров/работ/услуг.

5.5. Банк не несет ответственность в случае технических сбоев (отключение/повреждения электропитания и сетей связи, сбои программного обеспечения процессингового центра и технические сбои в платёжных системах), повлекших за собой невыполнение Клиентом условий данного Договора.

5.6. За нарушение Банком установленных законодательством сроков осуществления электронных платежей Банк должен уплатить Клиенту за каждый день просрочки пеню в размере 0,1 процента от суммы задержанного электронного платежа, но не более 10 процентов от суммы задержанного электронного платежа.

5.7. При ошибочном осуществлении электронного платежа по вине Банка, Банк не позднее следующего рабочего дня после выявления ошибки должен перевести средства на счет получателя.

5.8. Выплата пени одной Стороной другой Стороне не освобождает Стороны от выполнения своих обязательств в рамках настоящего Договора.

5.9. Каждая из Сторон при исполнении настоящего Договора обязана соблюдать требования действующего законодательства Республики Узбекистан, и несет за это ответственность.

6. ФОРС-МАЖОР

6.1. Ни одна из сторон не несет ответственности за частичное или полное неисполнения обязательств по настоящему договору, если это не исполнение явилось в следствии обстоятельств непреодолимой силы, возникших после заключения договора в результате событий чрезвычайного характера, как наводнение, пожар, землетрясение и другие стихийные бедствия, эмбарго, война или военные действия, которое стороны не могли предвидеть и предотвратить разумными мерами.

7. КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ

7.1. В соответствии с Законом Республики Узбекистан «О банковской тайне», Банк гарантирует тайну сведений о Клиенте, составляющих банковскую тайну.

7.2. Сведения, составляющие банковскую тайну, могут быть предоставлены только по письменному заявлению Клиента самому Клиенту или его доверенному лицу.

7.3. Представление третьим лицам сведений, составляющих банковскую тайну Клиента, может осуществляться только в порядке, предусмотренном нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан.

8. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

8.1. Все споры и разногласия, вытекающие из настоящего договора, разрешаются путём переговоров между сторонами.

8.2. . В случае неурегулирования споров и разногласий между сторонами путём переговоров, они подлежат разрешению в Ташкентском межрайонном экономическом судом в порядке, установленном действующим законодательством Республики Узбекистан.

8.3. Стороны соглашаются признать информацию, содержащуюся в их запоминающих устройствах, доказательством при разрешении спора.

8.4. Письменные уведомления сторон считаются направленными надлежащим образом, при наличии почтовой квитанции, подтверждающей, что она была отправлена по адресу или вручены под расписку одной из сторон.

9. АНТИКОРРУПЦИОННЫЕ УСЛОВИЯ

9.1. При исполнении своих обязательств по настоящему Договору стороны признают и подтверждают, что в своей деятельности каждая из них исходит из полного неприятия коррупции, полного запрета коррупционных действий и совершения выплат за содействие (прямое либо косвенное) в любой форме, в том числе в форме получения/предоставления денежных средств, ценностей, иного имущества или услуг имущественного характера, иных имущественных прав, независимо от цели, включая упрощение административных и иных процедур, обеспечение более быстрого решения тех или иных вопросов, предоставление конкурентных и иных преимуществ. Стороны руководствуются в своей деятельности применимым законодательством, а также разработанными на его основе политиками и процедурами, направленными на противодействие коррупции (при наличии).

9.2. Стороны гарантируют, что при исполнении своих обязательств по настоящему Договору ни они, ни их исполнительный орган, ни их должностные лица или их работники не будут предлагать, предоставлять, давать согласие на предоставление каких-либо коррупционных выплат любым лицам (включая, помимо прочего, частных лиц, коммерческих организаций и государственных должностных лиц), а также не будут добиваться получения, принимать или соглашаться принять от какого-либо лица (прямо или косвенно) любые коррупционные выплаты.

9.3. В случае нарушения каких-либо условий настоящего раздела, соответствующая сторона обязуется уведомить об этом другую сторону в письменной форме в течение 5 (пяти) рабочих дней со дня возникновения таких нарушений. В письменном уведомлении сторона обязана сослаться на факты или предоставить материалы, достоверно подтверждающие нарушение каких-либо положений настоящего раздела.

Письменные уведомления между сторонами осуществляется посредством каналов «Линия доверия комплаенс» (тел:0-800-120-8888, веб сайт www.sqb.uz;; Telegram мессенжер SQB AntiKor

(@sqbantikor_bot) по противодействию коррупции для физических и юридических лиц, созданных АКБ «Узпромстройбанк».

9.4. В случае подтверждения факта нарушения одной из Сторон правил настоящего раздела и/или неполучения другой Стороной информации об итогах рассмотрения уведомления о нарушении, другая Сторона имеет право расторгнуть частично или полностью настоящий Договор в одностороннем порядке.

9.5. Сторона, расторгнувшая настоящий договор на основании антикоррупционных условий, вправе требовать возмещения реального ущерба, причинённого таким расторжением. Возмещение ущерба осуществляется в сроки и в размерах, установленных в акте, письменно утверждённом обеими сторонами.

10. Требования по управлению с санкционными рисками.

10.1 При выполнении своих обязательств по настоящему Соглашению стороны признают и подтверждают, что каждая из них будет следовать и поддерживать политику и процедуры, направленные на соблюдение в своей деятельности норм международного права об экономических и финансовых санкциях.

10.2. В случае необходимости принятия Банком соответствующих мер (проверки и изучения), направленных на соблюдение международно-правовых документов об экономических или финансовых санкциях зачисление денежных средств на счет клиента, или перечислении их со счета Клиента на основании его поручения, Банк право приостановить эту операцию на необходимый на то срок.

10.3. Банк вправе проверить любую информацию или документы касательно сделки, заключённой между клиентом и его контрагентом (сведения о контрагенте, его полные реквизиты, список его аффилированных лиц, состав его акционеров/учредителей, его исполнительный орган, должностные лица, работники, о грузе, товаросопроводительные документы, спецификацию товара, информацию о перевозчике и другую необходимую информацию) на соответствие данной сделки международному законодательству об экономических и финансовых санкциях;

10.4. Банк вправе не зачислять денежные средства на счёт клиента, поступивших за счёт экспорта, а также отправку денежных средств по поручению клиента по импорту товаров/услуг при установлении наличия Банком санкций в отношении контрагента клиента, банка, обслуживающего контрагента, их аффилированных лиц, акционеров/учредителей контрагента, исполнительного органа, их должностных лиц или работников, импорта/экспорта товаров/услуг находящихся в перечне санкционных запретов, Банк одностороннем порядке может отказать в проведении данной операции.

10.5 При необходимости Банк вправе затребовать от клиента предоставления юридического заключения по проводимой сделке международно-признанной, имеющий рейтинг юридической фирмы о соблюдении требований международного законодательства об экономических или финансовых санкциях, если данной сделке Банком присвоен высокий санкционный риск.

Данное заключение не является основанием для проведения операции. Банк самостоятельно принимает решение о проведении этой операции.

Расходы клиента, связанные с получением юридического заключения банком не возмещаются.

10.6 В случае несоответствия деятельности Клиента международному законодательству о санкциях или в случаях отказа Банка в проведении внешнеторговых операций Клиента, Банк в течение 5 (пяти) рабочих дней направляет Клиенту письменное уведомление с приложением фактов /материалы, подтверждающие нарушение правил, на следующий почтовый адрес:

Банк: _____

Клиент: _____

10.7. При наличии у клиента оснований для отклонения фактов/материалов нарушения в соответствии пункта 1.6, указанных в письменном уведомлении, клиент вправе представить их в Банк в течение 3 (трех) рабочих дней с даты получения извещения.

10.8. Клиент гарантирует, что его контрагент, банк, обслуживающий контрагента, их аффилированные лица, акционеры/учредители контрагента, его исполнительный орган, их должностные лица или работники, товары/услуги не включены в санкционный список.

10.9. Клиент гарантирует, что денежные средства полученные от экспорта товаров и услуг, а также отправка денежных средств за счёт импорта товаров и услуг, не входят в список санкционных запретов.

11. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА, ПОРЯДОК ЕГО ИЗМЕНЕНИЯ И РАСТОРЖЕНИЯ

11.1. Настоящий договор вступает в силу со дня подачи заявления и действует до момента его расторжения.

11.2. Клиент вправе расторгнуть настоящий Договор в одностороннем порядке путём направления Банку соответствующего письменного заявления и оплаты причитающихся комиссий.

11.3. Банк вправе расторгнуть настоящий Договор в одностороннем порядке путём направления Клиенту соответствующего письменного уведомления не менее чем за 30 календарных дней до даты расторжения.

11.4. Банк предварительно информирует Клиента об изменениях и/или дополнениях в Договор, не менее чем за 10 (десять) календарных дней до даты вступления в силу изменений и дополнений путём предварительного раскрытия информации любым из нижеуказанных способов:

- а) размещение такой информации на сайте Банка www.sqb.uz;
- б) размещение объявлений на информационных стендах в обособленных подразделениях Банка, осуществляющих обслуживание Клиента;
- в) рассылка информационных сообщений по электронной почте;
- г) иные способы, позволяющие Клиенту получить информацию и установить, что она исходит от Банка.

12. ПРОЧИЕ УСЛОВИЯ ДОГОВОРА

12.1. Не предусмотренные настоящим договором взаимоотношения между сторонами регулируются действующим законодательством Республики Узбекистан и договором банковского счёта, заключённые между Сторонами.